




O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI



**“GLOBALLASHUV
DAVRIDA TURLI TIZIMLI TILLAR
MUNOSABATI” MAVZUSIDA**

**XALQARO ILMIY-AMALIY
ANJUMAN MATERIALLARI**

Navoiy-2023



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI FAKULTETI
O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI KAFEDRASI**

**“GLOBALLASHUV DAVRIDA TURLI TIZIMLI TILLAR
MUNOSABATI” MAVZUSIDAGI
XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
M A T E R I A L L A R I**

BIRINCHI KITOB

Navoiy-2023

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MAS'UL MUHARRIRLARI

N.Murodova	Navoiy davlat pedagogika instituti O'zbek tilshunosligi kafedrası professori, filologiya fanlari doktori
R.Yusubova	Navoiy davlat pedagogika instituti O'zbek tilshunosligi kafedrası professori, filologiya fanlari doktori (DSc)

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYANING TAHRIR HAY'ATI

N.Murodova	Navoiy davlat pedagogika instituti O'zbek tilshunosligi kafedrası professori, filologiya fanlari doktori
R.Yusubova	Navoiy davlat pedagogika instituti O'zbek tilshunosligi kafedrası professori, filologiya fanlari doktori (DSc)
X.Qurbonova	Navoiy davlat pedagogika instituti O'zbek tilshunosligi kafedrası dotsenti, p.f.n.
N.Yarashova	Navoiy davlat pedagogika instituti O'zbek tilshunosligi kafedrası dotsenti, filologiya fanlari doktori (DSc)
F.Yo'ldoshev	Navoiy davlat pedagogika instituti O'zbek tilshunosligi kafedrası dotsenti, filologiya fanlari doktori (DSc)
R.Sharopova	Navoiy davlat pedagogika instituti O'zbek tilshunosligi kafedrası dotsenti, f.f.f.d. (PhD)
G.Norova	Navoiy davlat pedagogika instituti O'zbek tilshunosligi kafedrası katta o'qituvchisi, f.f.f.d. (PhD)

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYANING TAQRIZCHILARI

N.Yarashova	Navoiy davlat pedagogika instituti O'zbek tilshunosligi kafedrası dotsenti, filologiya fanlari doktori (DSc)
G.Ernazarova	Navoiy davlat pedagogika instituti O'zbek tilshunosligi kafedrası dotsenti, f.f.f.d. (PhD)

Maqola va tezislarning ilmiy saviyasi, ma'lumotlarning haqqoniyligiga mualliflarning o'zlari mas'uldirlar.

SUKUTNING FALSAFIY TALQINI
Dilorom Nigmatovna Yuldasheva,
Buxoro davlat universiteti o'zbek tilshunosligi
va jurnalistika kafedrasida professori, pedagogika fanlari nomzodi
(O'zbekiston)

Annotatsiya. lisoniy vositalarning moddiy shaklda voqelanmagan muloqot turlari so'zsiz muloqot deb baholanadi. Shunday nutqiy muloqot ko'rinishlaridan biri sukutdir. Sukut ichki nutqning noverbal yuzaga chiqishi bo'lib uning falsafiy talqini sharq faylasuflari e'tiborini tortib kelgan

Kalit so'zlar: nutqiy muloqot, lisoniy omillar, nolisoniy omillar, verbal va noverbal, sukut.

Аннотация. Виды общения, не реализующиеся в материальной форме языковых средств, оцениваются как невербальное общение. Одной из форм речевого общения является молчание. Молчание – невербальное проявление внутренней речи, и его философская интерпретация привлекла внимание восточных философов.

Ключевые слова: речевое общение, лингвистические факторы, невербальные факторы, вербальное и невербальное, молчание

Annotation. Types of communication that are not realized in the material form of linguistic means are assessed as nonverbal communication. One of the forms of speech communication is silence. Silence is a nonverbal manifestation of inner speech, and its philosophical interpretation has attracted the attention of Eastern philosophers.

Key words: speech communication, linguistic factors, nonverbal factors, verbal and nonverbal, silence

Sukut hodisasi qadimdan sharq faylasuflari e'tiborini ham tortib kelgan.

Sharq falsafiy adabiyotida muloqot jarayoni, muloqot jarayonida sukutning o'rni xususida so'zlovchi ham, tinglovchi ham o'zligini – saviyasini, madaniyatini, bilimini va hatto dinini, mafkura va ijtimoiy mansubligini namoyon qilishi haqida Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Alisher Navoiy, Nizomiy Ganjaviy, Abu Abdullo Rudakiy, ibn Rushd, ibn Arabiy, Abdurauf Fitrat kabi yuzlab adiblarning qimmatli mulohazalarni bayon qilganlari fikrimiz dalilidir [2].

Jumladan, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" falsafiy asarida podsho Kuntug'di (Elig) va vazir Oyto'ldi (Hojib) orasidagi munozalardan biri muloqot madaniyatida so'zlash, tinglash, sukut saqlash madaniyatiga bag'ishlanganligini kuzatamiz:

Элиг йарлықамас нэжү сөзләйин
Айытмаста ашну нэжү өтнэйин
Билиглиг сөзи сэн эшит узнама
Айытмаста ашну сөзүн сөзләмэ
Кишиг ким оқыса кэрэклаб тилэб
Ул-оқ сөзләгү ашну сөзни улаб
Айытмаста ашну сөзүн сөзләмэ
Көни сөзләди ким э йылқы тэсэ
Тақы тэлвэ мундуз киши бу билин-
Айытмастаы бэглэркэ ачса тилин.
Tavsifi–
Elig buyurmasdan qanday qilib so'zlayin,

So‘ramasdan avval qanday qilib arz qilayin.
 Sen bilimli so‘zni eshit, bo‘yin tovlama,
 So‘ramas(lar)dan oldin so‘z(lar) ingni so‘zlama
 Kimda-kim (biror) kishi lozim topib, istab chaqirsa,
 U (chaqirgan)gina so‘zni ulab avval gapirishi kerak.
 So‘ramas(lar)dan oldin so‘z(lar)ingni so‘zlama,
 (Agar so‘zlasang) kim, ey yilqi, desa, u to‘g‘ri gapirgan bo‘ladi
 Yana telba, tentak kishi shuki, bilgin,
 (So‘z) so‘ramagan beglarga so‘zga til ochsa [5].

Mazkur o‘rinda sukut saqlash, jim turush fazilat, ortiqcha so‘zlash esa telbalik deb baholanadi.

Hozirgi o‘zbek tilida bayon qiluvchi va so‘zboshi muallifi Boqijon To‘xliyev “Tilingni avayla – omondir boshing” deb nomlanuvchi bo‘limda juda oz so‘zlash, hech qachon ko‘p gapirmaslik, sukut saqlash haqida shunday deydi:

Talay so‘zda aslo bo‘larmi foyda
 Ziyondan bo‘lak yo‘q so‘z ortiq joyda [6].

Yusuf Xos Hojib:

Yetarli so‘zla so‘z, ko‘p so‘zlashdan qoch,
 Tuman so‘z ma‘ninin bir so‘z bilan och

baytida ham “ko‘p so‘zlashdan qoch”deganda jim turishga, sukut saqlashga ishora qiladi.

Sharq faylasuflari keraksiz o‘rinda so‘zlash, ya‘ni sukut saqlay olmaslik kishini halokatga yetaklashini mashhur tarixiy voqea bilan ham izohlaydilar. Masalan, Mansur Xalloy (858-922): “Anal-haq” – “Men haqman” degan fikrni aytgani uchun shariat fatvosi bilan dastlab dorga ostirilib, so‘ngra kuydiriladi va kuli Dajla daryosiga oqizib yuboriladi [8]. Mansur Xalloyning “Anal-haq”idan ko‘ra dahshatliroq (shariat nuqtayi nazaridan) shiorni, ya‘ni: “Subhoniy, subhoniy, lo, iloha illa aniy” (“subhonman, subhonman, mendan o‘zga Alloh yo‘q”) degan fikrni aytgan eronlik olim Boyazid Bistomiy (801-875) esa avliyolar peshvosi bo‘ladi. Asrlar davomida, bahs-u munozaralardan keyin, Mansur Xalloyning haq yoki nohaqligi masalasida tasavvufda fors faylasufi Abdulloh Ansoriy(1006-1088)ning qarashi ustuvorlashdi.

Faylasuf olim va shayx, adib xoja Abdulloh Ansoriydan shogirdlari: “Kim haq, Mansurmi, mullalarmi?” deb so‘raganlarida xoja Abdulloh: “Suxan ba ahli suxan boyad guft” (“So‘zni so‘z ahliga aytish lozimdir”), deb javob beradilar; Mansur Xalloy “Anal-haq” g‘oyasini shu tushunchani ilg‘ay oladiganlar, ya‘ni tariqat ahli doirasida aytganida jazolanmas edi. U esa “Anal-haq” – “Men haqman”, ya‘ni “Men xudoman” g‘oyasini avomga aytdi va haqli ravishda shariat qonunlari asosida jazolandi.

Bu xulosani Kaykovus “Qobusnoma”da shunday yozadi: “Gar so‘zni va hunarni yaxshi bilsang ham, hech bir so‘zni sindirmag‘il, to‘g‘ri ta‘rif qilg‘il va uni bir rangda aytg‘il: xosga xos so‘z, omiyga omiy so‘z deg‘il, toki u hikmatga muvofiq bo‘lsun va eshitg‘on kishiga og‘ir kelmasin, yo‘qsa, so‘zingni dalil va hujjat bila ham eshitmag‘aylar. Undin so‘ng ularning rizosiga qarab so‘zlag‘il yo sukut saqlag‘il, to salomat bo‘lg‘aysan”[1].

Demak, nutqiy muloqot jarayonida o‘z o‘rnida jim turish, suhbatdoshlarning saviyasidan kelib chiqqan holda sukut saqlay olish ham juda muhim ekan.

Navoiy hazratlari “Devoni Foni”da yozadilar:

Сухан харчанд чонпарвар бувад, хомушӣ авлотар,
 Тариқи авлӣ ар дорӣ нигах, **СОКИТ** шавӣ Фонӣ[4].

Ya'ni

So'z tanlarga har qancha jon baxsh etsa ham xomushlik yaxshiroqdir.

Ey Foni, yaxshilik yo'lini tutsang, yaxshisi **sukut**dir.

Bu o'rinda ulug' alloma sukutni so'zdan yuqoriroq qo'yadi.

Barcha sharq allomalari kabi mir Alisher Navoiy ham nutqiy muloqotda sukut saqlamoqni fazilat deb hisoblaydilar. Jumladan "Nasoyim-ul muhabbat"[3]da sukut bilan bog'liq quyidagilarni o'qiymiz:

1) Abulabbos Ibn Ato ta'rifinda –

So'zlasa, so'zining bari ma'noli

Va gar sukut qilsa, bari malohat. (94-b.)

Bu shayxning har bir so'zi ma'noli: besabab va besamar so'zlamaydi va agar sukut saqlasa ham, sukuti nihoyatda go'zal fazilatdir. Bu o'rinda sukut falsafiy odob mezoni bilan bog'langan.

2) Abu Amr Nujayd ta'rifinda –

Aning so'zidurkim, **sukut** so'zga nisbataya ta'sirliroq va tezda yetib boradi. (155-b.)

Sukut insonning tug'ilishidan toki oxirgi nafasigacha unga hamroh bo'ladigan universal hodisalardan biri hisoblanadi. Ijtimoiy turmushda insonning so'zlay olish qobiliyati, nutqiy muloqotga kirisha olishi imkoniyati qay darajada tabiiy bo'lsa, uning sukuti va sukutdan foydalanish holati ham shu darajadadir. Sharqning faylasuf allomalari buni aksioma darajasida deb bilishganligi ularning o'gitlarida, hikmatli so'zlarida qabariq holatda turadi.

3) Xoja Muhammad Porso ta'rifinda –

Dedilarki: til behuda gapdan **sukut** qilsa, qalb Alloh bilan tillashadi. Agar til gapga tushsa, qalb **sukut** qiladi.

Sukut ikki xildir: tilning **sukuti** va qalbning dunyo andishalaridan **sukut** qilishi. Kimki, tilida **sukut** qilsa-yu qalbda **sukut** qilmasa, uning gunohi yengil bo'ladi. Kimki, tilda ham qalbda ham **sukut** qilsa, unga sirlar zohir bo'ladi, ulug' va qudratli Parvardigor unga tajalli qiladi. Kimki, tilida ham, qalbidan ham **sukut** saqlamas, shaytonning mulki va qo'g'irchog'i bo'ladi. Bundan barchamizni Allohning o'zi asrasin!

Kimki, qalbda **sukut** qilib, tilda **sukut** qilmasa, behuda gapdan tiyiladi, hikmat tili bilan gapirguvchi bo'ladi. Allohu Taolo o'z fazl-u karami ila ulardan bizni nasibador qilsin!

Bu o'rinda nutqiy muloqot jarayonida sukut va so'z so'zlash tenglashtiriladi va sukutning inson tafakkuri bilan aloqadorligiga ishora qilinadi.

Faylasuf alloma "Hayrat-ul abror" dostonida shunday yozadi:

Garchi yetib jomi hidoyat manga,

So'zda **sukut** o'ldi bag'oyat manga[4].

Ya'ni, shoir demoqchiki, garchi haqiqat jomiga qo'lim yetgan bo'lsa-da, ko'p vaqt so'zda sukut saqlamoqni afzal bildim.

Umuman, sharq madaniyatida sukut sharqona etiket, odob qonun-qoidalarining tarkibiy qismi sanalgan. "G'arb-u sharq mintaqalari odobida yana bir katta farq borki, bu hozirgi paytda G'arbda huquqning axloqdan, Sharqda axloqning huquqdan ustuvorligi masalasi. G'arb yoshlari balog'atga yetgach, ota-onaga teng huquqli fuqarolar sifatida munosabat qiladi, o'zining qarshi fikrini to'ppa-to'g'ri, ota yo onasining yuziga tik qarab bayon qiladi va buni inson huquqlaridan, shaxs erkinligidan foydalanish deb biladi. Sharq yoshlari, masalan, yapon yoki o'zbek ota-onaga tik gapirishni, to'g'ridan to'g'ri qarshi chiqishni an'anaviy axloqiy qoidalarining oyoqosti qilinishi deb tushunadi, padari yo volidasiga ko'zini yerga tikib, muloyim, o'z fikrini tovush ko'tarmay aytishni, ba'zan esa sukut saqlashni afzal deb biladi, ularga bo'ysunishni burch sifatida olib qaraydi"[7].

Sharq filosofiyasida yaratilgan asarlarda sukutning falsafiy talqini ko'p asrlar davomida rivojlangan diniy amaliyotda va mutafakkirlarning diniy asarlarida ushbu hodisaga munosabat bilan bog'liqligi yuqorida keltirgan misollarimizda ham ko'rinib turibdi.

ADABIYOTLAR

- 1.Кайковус У. Қобуснома/форсчадан Муҳаммад Ризо Огаҳий таржимаси. –Тошкент: Ўқитувчи, 1986. –Б.41.
- 2.Мўминов С.М. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари. Филол.фан.доктори ... дисс. – Тошкент, 2000. – 235 б.
- 3.Навойи А. Мукамал асарлар тўплами. 20 томлик. 17-том. –Тошкент: Фан, 2003. – Б. 4, 155, 265.
- 4.Навойи А. Мукамал асарлар тўплами. 20 томлик. 20-том. –Тошкент: Фан, 2003. – Б. 267.
- 5.Юсуф хос Ҳожиб. Қутадғу билиг/Нашрга тайёрловчи Қ.Каримов/ 2-нашр. –Тошкент: Фан., 1972. –Б.196-197.
- 6.Юсуф хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. Ҳозирги ўзбек тилида баён қилувчи ва сўз боши муаллифи Б.Тўхлиев. –Тошкент: Баёз, 2014. – Б.14-15.
- 7.Шер А., Ҳусанов Б. Ахлоқ фалсафаси. Нафосат фалсафаси. –Тошкент, 2008. –Б.19.
8. https://uz.wikipedia.org/wiki/Halloj_Husayn_Ibn_Mansur

URSULA LE GUIN ASARLARIDA FANTAZIYA JANRINING LINGVOMADANIY QIYOSI

M.M.Jo'rayeva,

BuxDU professori, filologiya fanlari doktori;

X.B.Hasanova,

NavDPI tadqiqotchisi

(O'zbekiston)

Annotatsiya: Maqolada Ursula Le Guin asarlaridagi fantastiya janrining lingvomadaniy taqqoslanishi ko'rib chiqilgan. Ursula Le Guin asarlarda adabiy manba obrazlari tizimining o'zgarishi nuqtai nazaridan tahlil va qiyoslash amalga oshiriladi. Fantaziya, xususan, ichki ziddiyatning tashqi tekislikka o'tishi, urg'uning personajlarning shaxsiy o'zgarishlaridan ularning sarguzashtlariga o'tishi, hikoya asosidagi qahramon sayohatining o'zgarishi kabi xususiyatlar bilan tavsiflanadi.

Fantaziya janrining lingvomadaniy qiyosi tahlil qilinganda keng auditoriyaga mo'ljallangan asarlar ushbu janrning aniq xususiyatlarini o'z ichiga olgan o'rtacha fantastiya formulasiga yaqinligi bilan ajralib turadi.

Kalit so'zlar: Fantaziya, Ursula le Guin, tasvirlar tizimi, lingvomadaniy taqqoslash ijodi, ilmiy fantastika, virtual dunyo

Аннотация: В статье рассматривается лингвокультурологическое сопоставление жанра фэнтези в творчестве Урсулы Ле Гуин. Произведения Урсулы Ле Гуин анализируются и сравниваются с точки зрения изменения системы образов литературных источников. Для фэнтези, в частности, характерны такие черты, как перенос внутреннего конфликта во внешнюю плоскость, смещение акцента с личных изменений героев на их приключения, изменение пути героя по сюжету.

MUNDARIJA:

SO‘ZBOSHI		3
Bahodir Boypulatovich Sobirov Til – millat ma’naviyati timsoli		4
BIRINCHI SHO‘BA KOMPARATIVISTIKA VA JAHON TILSHUNOSLIGI: MUAMMOLAR, YECHIMLAR VA STRATEGIYALAR		
1.	Murodova N. Turkiy areal lingvistikaning ba’zi metodologik masalalari	6
2.	Yusubova R. Badiiy matnni lingvostilistik metodlar asosida tadqiq qilish	10
3.	Begimov O. Oronimiya va gidronimiyada metafora hodisasining namoyon bo‘lish xususiyatlariga doir	15
4.	Shukurov O. Globallashuv jarayoni tillar munosabatiga ta’sir etuvchi muhim faktor sifatida	19
5.	Jomonov R. O‘zlashtirilgan so‘zlar bo‘yicha imlo qoidalarining o‘ziga xosligi	22
6.	Umirova S., Tirkashev J. Milliy til korpuslariga ehtiyoj	25
7.	Tursunov A. Amaliy va tatbiqiy tilshunoslik masalalari	28
8.	Xolmuxamedov B. Diniy-ma’rifiy leksika va muayyan muallifning idiostilini o‘rganish bosqichlari va usullari	31
9.	Ubaydullayev N. Biografik asarlarni o‘rganish	33
10.	Ibatova A. Based on the linguistic experiment of the concept of the term "bread"	35
11.	Нурмурадова Ш. Проблемы перевода международных слов в современном русском языке	38
12.	Казимова Г. Использование современных компьютерных технологий на уроках русского языка	41
13.	Khodjaeva D., Ergasheva M. About the branch of onomastics that studies celestial objects	44
14.	Shonazarova D. Intervyu diskurs va nutq madaniyati	47
IKKINCHI SHO‘BA BUGUNGI TILSHUNOSLIK RIVOJINING ASOSIY YO‘NALISHLARI VA ISTIQBOLLARI		
15.	Равшанов М. Исследование праязыковой реконструкции в произведениях	51

16.	Jo'rayeva B., Xolova M. O'zbek xalq maqollarida antroponimlar	53
17.	Yuldasheva D. Sukutning falsafiy talqini	56
18.	Jo'rayeva M., Hasanova X. Ursula Le Guin asarlarida fantaziya janirining lingvomadaniy qiyosi	59
19.	Hasanova D. O'zbek tilida shaxs sotsial belgilarini ifodalovchi nolisoniy vositalar xususida	64
20.	Yuldashev F. Leksik sathni tizim sifatida o'rganishning lisoniy imkoniyatlari	67
21.	Zaripov B. O'zbek tilida fe'l yasalishi va ularning uslubiy xususiyatlari	70
22.	Nuritdinova R. Ideonimlarning leksik va semantik xususiyatlari	72
23.	Nurmanov F. O'zbek ilmiy fonetikasida fonetik hodisalar muammolari talqini	74
24.	Yusupova O. Kichraytirish-erkalash shakllarining bolalar folklorida qo'llanilishi xususida ayrim mulohazalar	76
25.	Дарвишов И. Наманган шеваларида этник рудиментлар	80
26.	Allaberdiyev A. Buxoro o'g'uz shevalarida so'z birikmasi qo'llanishi	84
27.	Botirova A. Grammatik terminologiya tizimining rivojlanish omillari	88
28.	Ernazarova G. Ma'dansunoslik terminlari badiiylikni hosil qiluvchi konnotativ vosita sifatida	91
29.	Rashidova U. Ko'p tilli frazeologik lug'atlarning zamonaviy elektron platformasini yaratish xususida	95
30.	Эргашев И. Внешние факторы функционирования языка	98
31.	Нажмиддинов Ф. Вопросы логического и грамматического аспекта языка	100
32.	G'ulomova N. Alisher Navoiy parallel korpusini yaratishning dolzarbligi, ilmiy-amaliy ahamiyati	103
33.	Islamova D. Badiiy matnda inson his-tuyg'usini ochib beruvchi vositalar	107
34.	Suvanova M. Toponimiyaning mavzuiy-nominativ tasnifi xususida ba'zi mulohazalar (navbahor tumani misolida)	109

“GLOBALLASHUV DAVRIDA TURLI TIZIMLI TILLAR MUNOSABATI:

muammo, yechim, istiqbollar”

mavzusidagi xalqaro
ilmiy-amaliy konferensiyasi

M A T E R I A L L A R I

Hajmi 12,6. 1/16 bosma taboq. Adadi 50 nusxa.

NavDPI bosmaxonasida chop etildi.

Navoiy shahri Ibn Sino-45.